

MAVLUD MAROSIMI: DINIY QADRIYAT VA MILLIY AN'ANA UYG'UNLIGI

Karimova Madina Botirjonovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

"Gumanitar fanlar" kafedrası v.b., dots

Kozimov Otakeldi Muzaffarbek o'g'li

O'XK ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom olamida keng tarqalgan mavlud marosimining tarixi, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyati tahlil etilgan bo'lib, mazkur marosimning Andijon viloyatida o'tkazilish an'analari dala tadqiqotlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mavlud, Muhammad (s.a.v.), an'ana, ma'naviyat, diniy marosim.

Islom dinining ma'naviy va madaniy merosi juda boy bo'lib, u nafaqat diniy e'tiqod tizimini, balki xalqlarning urf-odatları va madaniy an'alarini ham qamrab oladi. Musulmon jamiyatlarida asrlar davomida shakllangan mavlud marosimi Muhammad (sallallohu alayhi vasallam)ning tug'ilgan kunini nishonlash an'anasi — islomiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

“Mavlud” so'zi asli arabchadan olingan bo'lib, lug'aviy tarjima qilganda “tug'ilish”, “tug'ilgan kun”, “yangi tug'ilgan chaqaloq” degan ma'nolarni anglatadi [1]. Mavlud marosimi payg'ambarimiz vafotidan keyingi 4 asr mobaynida ommaviy tarzda nishonlanmagan hamda dastlab XI asrda Misrda Fotimiy Shia imomlari doirasida gina o'tkazilib, omma unga jalb etilmagan [2]. Unda qurbonliklar qilinib, katta ziyofat hozirlangan, Axl al-bayt sohiblariga sovg'a-salomlar ulashilgan [3]. U 1207 yilda mavludni katta ommaviy marosim sifatida nishonlagan.

“Islom entsiklopediyasi”da bu marosimga quyidagicha izoh yozilgan: “Mavlud – Muhammad payg'ambar (s.a.v)ning tug'ilgan kunlari, bayram. Musulmon mamlakatlarida Mavlud kuni duolar, payg'ambar sha'niga madhiyalardan iborat she'rlar o'qiladi, sadaqalar beriladi, ulamolarning yig'ilishlari o'tkaziladi. Ko'pgina arab mamlakatlarida, shuningdek, bizning mamlakatimizda ham mavlud kuni va oyida Imom Barzanjiyning qalamiga mansub “Mavlud an-nabiy” qasidasi yoddan aytilgan.

Mahalliy aholi arab tilini yaxshi anglamaganligi bois uning har bir jumlasini tushunish mashaqqat tug'dirgan. Shuning uchun XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlarning zamondoshlari Xilvatiyning ustozı Langariy shogirdiga shunday kitob yaratishni topshiradi. Bu asar “Mavludu-n-nabiy”, yoki “Mavludi sharif turkiy” nomi bilan nomlanib, 1908, 1911, 1912, 1916 yillari G'ulom Hasan Orifjonov toshbosmaxonasida nashr etilgan. Mustaqillikdan so'ng

mazkur asar Xayrulla Qosim Elturk tomonidan arab imlosidan kirill imlosiga ko'chirildi va 1991 yili nashrdan chiqarildi [5].

Mavlud marosimini o'tkazishdan asosiy maqsad payg'ambarimiz Muhammad (sav)ni hayotlari haqidagi ma'lumotlarni marosim ishtirokchilari yanada to'liqroq anglash orqali uning siyratidan ibrat olish, Allohga va Rasuliga muhabbatni qalblarda mustahkamlashdir.

Ushbu marosimni o'tkazishdan oldin hovliga suv sepib supiriladi hamda xonalar tozalanib mehmonlar uchun joy hozirlanadi.

Andijon viloyatida erkaklar mavlud marosimi kunning xoxlagan paytida ya'ni uy egasi avval deb bilgan vaqtda o'tkaziladi. Marosimda uy egalari bilan taxminan 25-30 nafarga yaqin odam yig'iladi. Bunda asosan 50 yoshdan oshgan mahalla nuroniylari bo'ladi. Mavlud boshlangunga qadar nozu-nematlar bilan dastirxon tuzaladi. Taklif etilgan imom domla bilan birga birnecha nuronilar keladi hamma yig'ilganidan keyin aloxida patnisda, bir likopchada tuz, bir likopchada quruq choy, bir kosa suv, isriq olib kiriladi (ushbu mahsulotlar baraka, poklik va ezgulik ramzi sifatida qaraladi). Shundan so'ng imom Quron tilobatni qiroat bilan o'qishni boshlaydi. Asosan "Yasin" surasi o'qiladi. Olib kirilgan patnisdagi suv, quruq choy, isriq, tuzga dam solinadi, so'ng patnis uy egalari qaytarib beriladi uy egalari dam solingan suv va tuzni niyat qilib oz miqdorda istemol qiladilar. Undan keyin qori shu uyda yashab o'tganlarni xaqqlariga duo qilib qolgan azolariga tinchlik tilab Olloxdan baraka kelishini so'raydi. Quron tilovat oxirida uy egasini chaqirib Quron tilovat qilishini aytadilar. Shuning bilan Olloxni 99 ismi zikir qilinib yurtimizga tinchlik omonlik, ushbu xonadonga fayzu-baraka tilaydilar. Marosim davomida muxtaram payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (sav)ning turmush tarzlari va hayotlari haqida maruzalar qilinadi, u zodga salovatlar aytiladi ("Allohumma solli 'ala sayidina Muhammadin va 'ala oli sayidina Muhammad"), qilgan ishlari mo'jizalari haqida maruza qilinadi.

Mavlud o'qilgandan keyin odatdagiday mexmondorchilik davom etadi, ushbu marosim uchun tayorlangan milli taomlar beriladi, ya'ni mastava va osh dastirxonga tortiladi. Taomlanib bo'lgandan so'ng davradagi eng yoshi ulug' odam duoga qo'l ochib ehson sohiblarini duo qiladi. Bunga qadar uy egalari qorilarga tugun tayorlab qolgan odamlarga paketchlarda joynamoz va tasbex tayorlab qo'yadi. Marosim yakunida kelgan mehmonlarga tayorlab qo'yilgan tugun beriladi. Tugun berilishi qadimgi odatlardan biri hisoblanib, marosimdan ulush olib ketsin degan ma'noda beriladi.

Mavlud marosimi musulmon xalqlar madaniyati va ma'naviy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning ildizlari islom dinining ilk asrlariga borib taqalsa-da, vaqt o'tishi bilan har bir xalq an'anasiga mos tarzda boyib borgan. O'zbekistonda, xususan, Andijon viloyatida mavlud marosimlari diniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, jamoat birdamligini mustahkamlash, yoshlarga ibrat va axloqiy tarbiya berish

vositasiga aylangan. Shu bois, u nafaqat diniy bayram, balki milliy-axloqiy an'ana sifatida ham xalqimiz ma'naviy dunyosida muhim o'rin egallab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ислом маърифати. Назарий-услубий қўлланма. — Тошкент: Тошкент ислом университети, 2005. — 107 б.
2. Kaptein, N.J.G. (1993). Muhammad's Birthday Festival: Early history in the Central Muslim Lands and Development in the Muslim West until the 10th/16th Century. Leiden: Brill.
3. Schussman, Aviva (1998). "The Legitimacy and Nature of Mawlid al-Nabi: (Analysis of a Fatwa)". Islamic Law and Society — P. 216.
4. Schussman, Aviva (1998). "The Legitimacy and Nature of Mawlid al-Nabi: (Analysis of a Fatwa)". Islamic Law and Society Vol. 5 (No. 2): P. 216. Ахмад ибн Мухаммад Али ибн Хажар Хайтамий «Тухфатул мухтож фи шархил минхож» Вена., 2002. — Б. 78.
5. Хайрулла Қосим Элтурк. *Мавлуди шариф туркий*. — Тошкент: Ғ.Ҳ. Орифжонов тошбосмахонаси, 1916; қайта нашри, 1991.
6. Dala yozuvlari: Andijon viloyati, Izboskan tumani Daryo bo'yi M F Y. 2025 yil.